



**Tadqiqot uz**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

# 2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



# №22

30 ноябрь

**conferences.uz**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
25-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-25**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-25**

**ТОШКЕНТ-2020**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 22-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОГРАФИЯ**

<b>1. Tulegenova Klara Ibadullayevna</b> TA'LIMGA E'TIBOR-KELAJAKKA E'TIBOR.....	7
<b>2. Мелиева Озода Холмуродовна</b> ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР.....	10
<b>3. Ro'ziboyeva Shaxloxon Muxtorovna</b> DARYO HAVZASINING TABIIYGEOGRAFIK XUSUSIYATLARI.....	12
<b>4. Шарипова Шахноза Исроиловна</b> ЎҚУВЧИЛАРНИ МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШДА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИНГ ЎРНИ.....	13
<b>5. Sherjonova Sohiba Qurbonazarovna</b> GEOGRAFIYA DARSLARIDA TESTLARDAN FOYDALANISH.....	15
<b>6. Yusupova Shahnoza Shonazarovna</b> MEDIADARS-BILIMLARNI OSHIRISH VOSITASI.....	16



## ГЕОГРАФИЯ

### ТА'LIMGА Е'TIBOR-KELAJAKKA Е'TIBOR

*Tulegenova Klara Ibadullayevna*  
*Navoiy viloyati Zarafshon shahar*  
*4-umumiy o`rta ta'lim maktabi*  
*geografiya fani o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o`quvchilarning aqlini charxlashga undaydigan, barcha o`quvchilarni bir darsning o`zida baholaydigan va ularni bir-biriga hurmat ruhida tarbiyalaydigan usul hamda o`yinlar taqdim etilgan.

**Tayanch so`zlar:** Estafeda, qiziqarli savollar, bellashuv, tilak, ahillik, Vatanga muhabbat.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng ta'lim sohasini tubdan isloh qilishga juda katta e'tibor qaratildi. Shu yo`lda ko`plab qonunlar, qarorlar, nizom va dasturlar hayotga tadbiiq etildi. Maktab ishi uchun eng muhim hujjatlardan biri bo`lgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning milliy modelidagi bosh muddao – bu komil inson tarbiyasi, mustaqil fikrlovchi ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Shu bois biz pedagoglar katta mas'uliyatni sezgan holda o`z ishimizga jiddiy yondashmog`imiz lozim. Shu sababli har bir darslarni innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Quyida shunday o`yin va usullardan birini tushuntirishni joiz topdim.


**1. "ESTAFETALI BELLASHUV" O`YINI. O`yinning qo`llanilishi:** Bu usul barcha darslarning oxirida, predmetning biron-bir bo`limi tugallanganda, o`tilgan mavzularni baholash, takrorlash, mustahkamlash, o`zaro bellashishga mo`ljallangan.

**O`yin maqsadi:** dars jarayonida o`quvchilarni aniq, tezlik bilan xatosiz javob berishga va albatta, aniq va to`g`ri qarorga kela olishga undashdan iborat.

**O`yin uchun kerak jihozlar:** Savollar blankasi; estafeta tayoqchasi (bayroqchadan foydalanish ham mumkin) o`quvchilarni guruhlarga ajratuvchi raqamli qog`oz, qaysi guruh o`yinni boshlashini aniqlovchi biron-bir predmet.

**O`yinni o`tkazish qoidasi:** Dastlab guruh o`quvchilari 2- jamoaga bo`linadi;

Ularning joylashishi va harakatlanishi quyidagidek amalga oshiriladi (1- rasm);



1-rasm. Guruh a`zolarining partalarda joylashishi va harakatlanish sxemasi Demak, jamoa a`zolari yuqoridagi sxemada ko`rsatilganidek, partalarga joylashishadi. Qaysi guruh birinchi bo`lib boshlashi qur`a tashlash yo`li bilan aniqlanadi. O`yin parta oxiridan boshlanadi.

O`qituvchi o`yinni birinchi bo`lib boshlaydigan jamoa ishtirokchisiga dastlabki savolni beradi. Ishtirokchi berilgan savolga javob bersa, qo`lidagi estafeta tayoqcha (bayroqcha)sini sherigiga ko`rsatilgan (1-rasm) sxema bo`yicha uzatadi. Agar savolga javob qaytara olmasa, qo`lidagi estafeta tayyoqcha (bayroqcha)si o`zida qoladi. O`qituvchi keyin raqib jamoaning ishtirokchisiga savol beradi. Bu ishtirokchi ham javob bersa, qo`lidagi estafeta tayoqcha (bayroqcha)sini sheri-



giga ko'rsatilgan sxema bo'yicha uzatadi, javob bera olmasa, qo'lidagi estafeta tayyoqcha (bayroqcha)si o'zida qoladi. Estafeta tayyoqchasini qatnashchilar bir-birlariga navbat bilan uzatib borishadi. Estafeta tayyoqchasini faqat savolga javob bergandagina uzatishga ruxsat beriladi. Shu tarzda savol-javob qaysidir guruh qo'lidagi estafeta tayyoqchasini to'garak rahbariga birinchi bo'lib etkazib borishiga qadar davom etadi. Estafeta tayyoqchasini jamoa a'zolari qoidani buzmasdan, vazifani aniq va tezda bajarib, birinchi bo'lib o'qituvchiga etkazib, o'sha jamoa g'olib deb topiladi. Jamoa a'zolarining o'yindagi, ishtirokini o'qituvchi aniqlab boradi va mashg'ulot so'ngida ularni baholaydi. Bunda ishtirokchining o'ziga berilgan har bir savolga birinchi imkoniyatda javob qaytarib, estafeta tayyoqchasini sherigiga vaqtida uzatib borishi hisobga olinadi.

**O'yinning oltin qoidasi:** Agar o'quvchilar savollarga javob berish jarayonida boshqa o'quvchilar tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga yo'l qo'ysalar, o'yindan chetlatiladilar.

**2. Savollarga javob bering.** 1-savol: Tabiblar uni qanday ichish kerakligini yozishgan: «Bu ajoyib ichimlikni osoyishta ich, shundagina sen tanangga ozor beruvchi tashvishlarni yenga oladigan darajada o'zingni tetik his etasan». Bu qaysi ichimlik? **Javob: Choy.**

2-savol: Rossiyaga u dastlab Mongoliyadan 1638 yilda dori sifatida yuborilgan; Rossiyada uni iste'mol qilish XVIII asr o'rtalaridan boshlab odat tusiga kirgan. U nima? **Javob: Choy.**

3-savol: Bu daraxt Afrika shimolida shu yerlik xalqning ozuqaga, qurilish materiallariga, qisqasi, kun ko'rish uchun zarur narsalarga bo'lgan ehtiyojini

qondiradi. Sahroi kabirning ayrim viloyatlarida uning mevasi hamon pul vazifasini o'tab kelmoqda. Bu qaysi meva? **Javob: Xurmo.**

4-savol: Uning vatani Bengaliya hisoblanadi. E.av. 327 yilda Iskandar Zulqarnayn Hindistonga yurish qilgan paytlarida uni «arisiz asal» deb atagan. U nima?

Javob: Shakarqamish.

5-savol: «Fil sichqondan qo'rqadi, chunki sichqon filning hartumiga kirib ketarmish» deyishadi. Bu noto'g'ri. Fil hartumiga sichqon kirishidan qo'rqmaydi. Mabodo sichqon filning hartumiga kirgudek bo'lsa, uni chirpirak qilib puflab yuboradi. Lekin «fil sichqondan qo'rqadi» degan iboraning zamirida haqiqat bor. Bu haqiqat nimadan iborat? **Javob: Sichqon va kalamushlarning narsalarni qitirlatib kemirishi filni asbiylashtirib yuboradi, jazavasini qo'zg'otadi va shuning uchun fil o'sha yerdan qochishga harakat qiladi.**

6-savol: Bu ovozni eshitgan qoplon irillashdan, sirtlon uvillashdan to'xtaydi, maymunlar ayuhannos solib daraxtlarning eng baland shohlariga chiqib ketadi, kiyiklar, ohular yashin tezligida ko'zdan g'oyib bo'ladi, podada ma'rayotgan qo'y, echkilarning ovozi o'chadi, tuyalar arqonini uzib qochadi, otlar oldinig ikki oyog'ini tik ko'tarib, og'ir hansirab, kishnay boshlaydi va zo'r berib orqasiga tisariladi, itlar dumini qisib egasining pinjiga kiradi. Bu ovozni eshitganda hatto odam ham bezgak tutgandek qaltirab, bekinish uchun joy axtaradi. Bu qanday ovoz? **J: She'r na'rasi.**

7-savol: Bu diyorda yetim qolgan cho'chqa bolasini emizayotgan ayolni, eng yaqin kishisi vafot etganida ta'ziya bildirish sifatida bir barmog'ini kesib tashlaydigan odamlarni hozir ham uchratish mumkin. Bu diyorning nomi nima?

Javob: Papua-yangi Gvineya.

8-savol: Bepoyon jazirama cho'ldagi yashovchi badaviylar uchun bu rang muqaddas rang, baxt va go'zallik rangi, jannat rangidir. Bu qaysi rang? **J: Yashil rang.**

**3. “Guruh munozarasi”.** O'qitishning bu usulida o'quvchilarning o'zaro muloqoti va filer almashishga asoslangan. Bunda guruhda tahlil qilish, baholash va tekshirish asosida muayyan mavzu yoki sahifa ishlab chiqiladi.

**4. “Tanqidiy tafakkur”.** Tanqidiy tafakkur usuli o'qituvchi qo'ygan masala yoki muammoni o'quvchi o'z fikrini bayon qilish, o'z g'alar fikrini qayta idrok etish, o'z nuqtai nazarini asoslab berish va saqlab qolish orqali yechish yoki hal etish imkoniyatlariga ega bo'lishga asoslangandir.

**5. “Demonstratsiya”** Demonstratsiya “ko'rsataman, isbotlayman” degan ma'noni anglatadi. Bu o'qitish usulida o'qituvchi topshiriqni bajarib, o'quvchilarga bu topshiriqni qanday bajarish kerakligini ko'rsatadi. O'quvchilarga topshiriqni bajarib ko'rish imkonini berish kerak.

**6. “Tilak” metodi.** Bu darsda o'quvchilar doira shaklida o'tirib oladilar va oldidagi o'quvchiga “Men sizga chin ko'ngildan omad tilayman, xushkaufiyat, baxt tilayman”, deydi. Shu tariqa bolalar bir-biriga dunyodagi eng yaxshi tilaklarni bildiradi. Chiroyli tilak bildirgan o'quvchiga 5 ball bilan baholanadi. Hamma chiroyli tilak bildirib bo'lgandan so'ng o'qituvchi bolalarga yuzlanib:



-Qadrli bolalar, dunyoda barcha xalqlar, millat-u elatlar bir-biriga tilaydigan eng yaxsh, go'zal tilak nima, bilasizlarmi? Shubxasiz, tinchlik-xotirjamlik, el-yurt farovonligi.Bugun yurtimiz shu aziz ne'mat tufayli taraqqiy etib, qo'llab olamshumul yutuqlarga erishyapti.Barcha baxtli, tinch-farovon hayot kechirmoqda.Bundan ortiq baxt bormi?-deya “Aqliy hujum” uyushtiradi.O'quvchilar guruhlarga bo'linib, Vatanni ta'riflashadi.Vatan-ota-onamiz, bizni ulg'aytirgan beshigimiz, yashayorgan xonadonimiz, ta'lim ilayotgan maktabimiz, qishlog'imiz, so'lim go'shamiz, mustaqil O'zbekistonimiz, tayanchimiz, iftixorimiz, nurli kelajagimiz, deya o'z fikrlarini bildirishadi.

Har bir darsda o'quvchiga Vatanimizning o'zga yurtlardan ustun bitta jihatini aytsak,bora-bora uning qalbida o'z yurtiga kuchli muhabbat, shu tuproqda tug'ilganligidan faxrlanish tuyg'usi qaror topadi. Biz o'qituvchilarning eng oliy maqsadimiz ham shu, ya'ni biz ta'lim bergan o'quvchilar Vataniga qalbidagi buyuk muhabbat bilan xizmat qilsin. Qisqa qilib aytganda, el koriga yarasin!

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogika. O'quv-qo'llanma.T .: O'zR FA “Fan”.2006.
2. “Umumta'lim fanlar metodikasi” jurnali 2016- yil ,1-son 3.Internet saytlari 4.ZiyoNet .uz



## ГЕОГРАФИЯ ТАЪЛИМИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР

*Мелиева Озода Холмуродовна,  
Навоий шаҳар 8-умумтаълим мактаб  
География фани ўқитувчиси*

**Аннотация.** Ушбу мақолада таълим тизимида рақамли ахборотларни яратиш ва аудиовизуал технологияларнинг география таълимида фойдаланиш аҳамияти, электрон ресурсларни яратиш ва уларнинг таълим сифатини оширишдаги ўрни ҳақида фикрлар баён этилган.

**Таянч сўз:** рақамли ахборотлар, аудиовизуал технология, аудиовизуал воситалар, ахборот ресурслар, 3D- дастурлар.

Мамлакатимизда таълим сифатини оширишга замонавий талаблар асосида ўқув дастурларини, ўқув-методик адабиётлар мажмуаларини янгилаш, ўқув жараёнига замонавий таълим технологияларини жорий этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев илм-фанни янада раванг топтириш, ёшларимизни чуқур билим, юксак маънавият ва маданият эгаси этиб тарбиялаш, рақобатбардош иқтисодиётни шакллантириш борасида бошланган ишларни жадал давом эттириш ва янги, замонавий босқичга кўтариш мақсадида 2020 йилни «Илм-маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили» деб номладилар. Демак, ахборотлар ҳажми жадал ортиб бораётган бугунги шароитда таълим тизимида рақамли ахборотларни яратиш ва улардан самарали фойдаланиш технологияларини такомиллаштириш ҳамда бу технологияларни амалда татбиқ қилиш муҳим аҳамият касб этади.

Рақамли ахборотлар яратиш ва ундан фойдаланиш технологияларидан бири - аудиовизуал технологиялар ҳисобланади. Ўқув жараёнига кенг кириб келаётган ўқитишнинг аудиовизуал тизими (лотинчадан *audire* - эшитиш ва *visuails* - кўриш) кўرғазмалари ва эшитиладиган ахборотларни тақдим қилишга мўлжалланган махсус техник воситаларни ўз ичига олади. Аудиовизуал воситалар— аудио, видео, электрон ўқув қўлланмалар, ўқув видеоёзувлар, электрон ресурслар банкини яратиш ва улардан самарали фойдаланиш тамойилларидир.

Бугунги кунда таълим самарадорлигини оширишда турли усуллардан фойдаланилмоқда. Мақсадга эришиш ҳамда ахборотларни қабул қилишда аудиовизуал воситалари имкониятларини кенгайтириш муҳим аҳамият касб этади. Аудиовизуал воситалар ва технологияларни машғулотларда асоссиз, ихтиёрый равишда қўллаш салбий оқибатларга ҳам олиб келиши мумкин. Шунинг учун кўрғазмалари воситалардан фойдаланишда бир қатор шартларга риоя қилиш мақсадга мувофиқ бўлади:

- қўлланилаётган кўрғазмалари восита таълим олувчининг ёши, психофизик хусусиятларига мос келиши;
- кўрғазмалари восита меъёрида ишлатилиши ва уни кетма-кетликда ҳамда таълим жараёнининг фақатгина лозим бўлган жойида кўрсатиш; - иллюстрацияларни кўрсатишда асосийлари ва муҳимларини аниқ ажратиш олиш;
- намоиш қилинаётган кўрғазмалари материаллар мазмуни билан мос тушиши;
- кўрғазмалари қўлланмадан ёки намоиш этилаётган қурилмадан исталган ахборотни топиш ва таҳлил қилишга таълим олувчиларнинг ўзларини жалб этиш лозим.

Олий таълимнинг давлат таълим стандартида белгиланган умумий талабларида ўқув жараёнини фаол ва интерфаол шакллари ташкил этиш, талабаларнинг касбий кўникмаларини ривожлантириш, мустақил таълим олиш билан биргаликда хорижий илм-фан таълим технологияларини кенг қўллашни назарда тутати. Замонавий педагогик ва ахборот технологияларига асосланган таълим тизими фақатгина педагог фаоллигига асосланган анъанавий таълимдан фарқли равишда, таълим сифатини оширишга қолмай, таълим олувчининг фаоллигини кучайтириб, унинг ижодий қирраларининг очилишига катта ёрдам берадиган восита сифатида намоён бўлади. Шунинг учун география таълимида аудиовизуал воситалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Талабалар умумий табиий география фанини ўзлаштириш жараёнида фаннинг тадқиқот объекти, предмети, тадқиқот усуллари, Коинот, Қуёш системаси, Ер ва



унинг Куёш системасидаги тутган ўрни, географик қобик ва унинг тузилиши, географик муҳит ва инсон муносабатларининг географик асосларига оид назарий қарашлар ҳақида тасаввурга эга бўлишлари лозим. Аудиовизуал воситалар эса педагог етказмоқчи бўлган тасаввурни таълим олувчидаги мавжуд маълумотлар билан уйғун ҳолда унда шакллантириш имконини беради. Аудиовизуал тақдим қилинган материал педагог томонидан сўзлар орқали берилган материалга нисбатан тўлиқроқ қабул қилинади. Бу ерда телетасвирларни қабул қилишнинг психологик ўзига хослиги муҳим аҳамият касб этади. Ихтиёрӣ жараён ва ҳодисаларни чуқур ўрганишда уларни компьютер ва аудиовизуал аппаратлар асосидаги қурилмалар ва технологиялар мажмуасидан иборат замонавий аудиовизуал воситалар ёрдамида моделлаштириш имкони юзага келди. Агар тасвирлар моделлаштиришнинг 3D-дизайнер дастурлари ёрдамида тайёрланган бўлса самарадорлик сезиларли даражада юқори босқичга кўтарилади. Бундай тасвирларни география фанларини ўқитишда қўллаш мавзуларга оид маълумотлар моҳияти тўлиқ очиб бериш имкониятини беради.

Хулоса қилиб айтганда, таълим тизимида рақамли ахборотларни яратиш ва улардан самарали фойдаланиш таълим олувчиларнинг сифатли ахборотларга бўлган эҳтиёжини қондириш билан бирга уларнинг янги маълумотларни ўзлаштиришига ижобий таъсирини кўрсатади ҳамда таълим самарадорлигини янада ошишига эришиш мумкин.

Адабиётлар:

1. Новые аудиовизуальные технологии: Учебное посо-бие. / Отв. ред. К.Э.Разлогов. – М.: «Едиториал», 2005.
2. Мухаммадиев А.Ш. Таълим тизимининг ахборот таъминотини шакллантиришда аудиовизуал технологиялар // Замонавий таълим №1. 2015. –Б. 37-38.



## DARYO HAVZASINING TABIIYGEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

*Ro'ziboyeva Shaxloxon Muxtorovna, o'qituvchi  
Farg'ona viloyati Beshariq tumani 1-son IDUM*

**Annotatsiya:** Daryo havzasining iqlim sharoiti havzaning geografik o'rniga bog'liq. Yer yuzasidagi har bir daryo havzasi o'ziga xos bo'lgan alohida xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu o'ziga xoslik ma'lum tabiiygeografik omillar bilan aniqlanadi.

**Kalit so'zlar:** Janubiy va shimoliy nuqtalari, iqlim sharoiti, daryoda suvning oqish tezligi, o'simlik qoplami.

Daryo havzasining geografik o'rni haqda gap ketganda, daryo havzasi joylashgan hududning eng chekka janubiy va shimoliy nuqtalari, eng chekka g'arbiy va sharqiy nuqtalari nazarda tutiladi. Shu ma'lumotlarga ega bo'lsak, daryo havzasining qaysi materikda, qaysi kenglikda, qaysi mamlakat hududida joylashganligi haqida dastlabki tasavvurga ega bo'lamiz.

Daryo havzasining iqlim sharoiti asosan, havzaning geografik o'rniga bog'liq bo'lib, uzoq yillar uchun xos bo'lgan quyidagi omillar bilan aniqlanadi: yog'inlarning miqdori, yog'ish jadalligi, yog'in miqdorining yil ichida taqsimlanishi, qor qoplaminin qalinligi va uning suvliligi, havo harorati va namlik darajasi, shamol va uning tezligi, yo'nalishi. Daryo oqimining hosil bo'lish jarayoni, to'yinish manbalari, va, umuman uning gidrologik rejimi daryo havzasining iqlim sharoitiga bog'liqdir.

Daryo havzasida hosil bo'lgan suv miqdori unga yoqqan yog'in miqdori bilan aniqlansa, havzada yo'qotiladigan suv miqdori, ya'ni bug'lanish havo harorati, namlik va shamol bilan aniqlanadi. Ikkinchi tomondan, havo haroratining ko'tarilishi daryo havzasidagi qor qoplami va muzliklarning erishini, natijada daryoga yanada ko'proq suv qo'shilishini ta'minlaydi.

Havzaga yoqqan yog'inlardan hosil bo'lgan suvning yer bag'riga shimilish miqdori, yer osti suvlarining joylashish chuqurligi, daryo oqiziqqlarining manbai hisoblangan tog' jinslarining yuvilish jadalligi va nihoyat, daryo o'zanining hosil bo'lish jarayoni daryo havzasining geologik tuzilishi bilan bog'liqdir.

Daryoda suvning oqish tezligi va shunga bog'liq holda uning energiyasini aniqlashga imkon beradigan daryo havzasi va o'zanining nishabligi, havzaga yog'adigan yog'inlarning balandlik bo'yicha taqsimlanishi relef bilan bog'liqdir.

Havzada hosil bo'lgan suvning shimilish jadalligi, daryoga tushadigan oqiziqqlar miqdori va ularning yiriklik darajasi daryo havzasining tuproq qoplami bilan bog'liqdir.

O'simlik qoplami esa havzadan bo'ladigan bug'lanish miqdoriga ta'sir qiladi. O'simlik turiga bog'liq tarzda ayrim hollarda (qamish, bordon) bug'lanishni jadallashtirishi, ayrim hollarda (o'rmonlar) esa kamaytirishi mumkin. O'simlik qoplami daryo havzasida yer sirtidan bo'ladigan yuvilish miqdorini keskin kamaytiradi.

Daryo havzasida joylashgan ko'llar, botqoqliklar, muzliklar daryo oqimiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, daryo havzasida ko'llarning mavjudligi oqimni yil davomida bir tekis taqsimlanishiga ta'sir etadi. Botqoqliklar, o'rmonlar esa daryo oqimiga yanada kuchliroq va murakkabroq ta'sir ko'rsatadi.

Daryo havzasida inson tomonidan amalga oshiriladigan turli tadbirlar havzaning tabiiy-geografik sharoitiga va bu holat o'znavbatida uning gidrologik rejimiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Insonning xo'jalik faoliyati daryo havzasida ma'lum maydonlarni shudgorlash, o'rmonzorlar barpo etish yoki ularni yo'q qilish, selxonalar va suvomborlarini qurish, suvning ma'lum qismini sug'orishga olish, oqava suvlarni daryoga tashlash kabilarni qamrab oladi.

Adabiyotlar:

1. Корьянко О.В. “ Экономическая география ” Москва 2005
2. Maksakovskiy V.P. “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi ” Toshkent “O'qituvchi” 1995



## ЎҚУВЧИЛАРНИ МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШДА АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРНИНГ ЎРНИ

*Шарипова Шахноза Исроиловна,  
Навоий шаҳар 8-умумтаълим мактаб  
География фани ўқитувчиси*

**Аннотация.** Ушбу мақолада халқ таълимидаги ислохотлар, аънанавий ва ноаънанавий таълим ҳамда ўқувчиларни мантиқий фикрлашга ўргатишда амалий машғулотларнинг ўрни тўғрисида маълумотлар берилган ҳамда мисоллар келтирилган.

**Калит сўзлар:** ислохотлар, аънанавий таълим, ноаънанавий таълим, интерфаол методлар, мантиқий фикрлаш, масштаб, масофа.

Ўзбекистоннинг миллий мустақиллиги жамиятнинг иқтисодий, ижтимоий-сиёсий ҳаётида туб ўзгаришлар содир бўлишига олиб келди. Республикамиз иқтисодиётнинг барча соҳаларида, шу жумладан, таълим тизимида ҳам кучли ўзгаришлар, ислохотлар амалга оширилмоқда.

Таълим-тарбия соҳасини модернизациялаш, ўқув жараёнида замонавий педагогик ҳамда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, ўқитувчиларнинг касбий маҳорати ҳамда уларнинг билим, кўникма ва маънавиятини оширишга катта эътибор қаратилмоқда. Фанларни ўқитишда интерфаол методлардан, дарсликлар, ўқув кўлланимлари, электрон манбалар, монографиялар, хорижий адабиётлар ва интернет маълумотларидан фойдаланилган ҳолда дарс ўтиш бугунги куннинг талаби бўлиб қолмоқда. Таълимда узоқ вақт аънанавий дарс ўтиш усуллари билан фойдаланиб келинди. Бу нафақат юртимиз учун, балки собиқ иттифок парчаланишидан сўнг, мустақиллигини қўлга киритган давлатларда, шу жумладан, Шарқий Европа давлатлари таълими учун ҳам хос эди. Бу давлатларнинг барчасида назарий билим кучли ўқитилиб, амалий билимлар эса кучсиз ўқитилган. Бундай дарс ўтиш усули бугунги кунда самара бермай қўйди. Шунинг учун бугунги кунда таълимда аънанавий дарс ўтиш усуллари билан биргаликда, замонавий дарс ўтиш усуллари ҳам кенг фойдаланилмоқда. Бугунги куннинг асосий талаби ўқувчиларда фанлар кесимида мантиқий фикрлашни ўргатишга қаратилган. Ўқувчиларда табиий фанлар кесимида мантиқий фикрлаш лаборатория ва амалий машғулотларсиз шаклланди.

География дарсларида ўқувчиларни мантиқий фикрлашга ўргатишда амалий машғулотларнинг ўрни катта. Қуйида география фанидан масштаб мавзуси билан боғлаб амалий машғулотлардан намуналар бердик.

Масштаб бу – жойдаги масофанинг чизмада, план ва харита тасвирланганда неча марта кичрайтирилганлигини кўрсатувчи каср сондир. Масалан: харитада 1:1000000 масштаб берилган бўлса, харитада тасвирланаётган ҳудуд 1000000 марта кичрайтирилган ҳисобланади. Масштаблар 3 хил бўлади (сонли, номли, чизиқли). Масштабда энг муҳим нарса сонли масштабни номли масштабга, номли масштабни эса сонли масштабга айлантиришдир.

Агар сонли масштабни номли масштабга айлантираётганимизда сонли масштабда ноллар сони 5 та ва ундан ортиқ бўлса, орқадаги 5 та нол ўчирилади ва номли масштаб километрда берилади. Масалан : 1: 1000000 сонли масштабни номли масштабга айлантираемиз. Бунда орқадаги 5 та нолни ўчираемиз ва харитада 1 см. масофа 10 км. га тенг эканлигини аниқлаштираемиз.

Агар сонли масштабда ноллар сони 5 тадан кам бўлса, орқадаги 3 та нол ўчирилади ва номли масштаб метрда берилади. Масалан : 1: 30000 сонли масштабни номли масштабга айлантираемиз. Бунда орқадаги 2 та нолни ўчираемиз. Демак, харитада 1 см. масофа 300 м. га тенг экан.

Масала: Карим Ўзбекистоннинг чекка тоғли туманларидан бирида яшайди. Каримлар яшайдиган қишлоқ денгиз сатҳидан 1300 метр баландда жойлашган.

Қишлоқдаги мактаб Каримлар уйдан 2400 метр узоқликда жойлашган. Карим ҳар куни мактабга бориб келиши учун йўлга 1 соат вақт сарфлайди.

1-савол: Каримларнинг уйи билан мактабгача бўлган масофа 1:10000 масштабда хари-



тада қанча см. га тенг эканлигини топинг.

- A. 2.4 см
- B. 5.7 см
- C. 42 см
- D. 24 см

Дастлаб биз сонли масштабни номли масштабга айлантириб оламиз. Сонли масштабда ноллар сони 5 тадан кам бўлгани учун, орқадаги 2та нолни ўчирамиз. Демак харитада 1 см. масофа 100 метрга тенг экан. 2400 метрли масофани 100 метрга бўламиз.

Жавоб: Д - 24 см.

2- савол: Карим кадам ўлчагич ( шагомер) ёрдамида мактабга бориб келиши учун 12000 кадам ташлаганини аниқлаган бўлса, унинг ўртача кадам узунлигини топинг( см. да ҳисобланг)

- A. 60 см
- B. 50 см
- C. 40 см
- D. 35 см

Биз, энг аввало, Каримнинг мактабга бориб келиш масофасини топамиз. Бориш – 2400 метр, келиш -2400 метр бўлса, жами масофа 4800 метрга тенг экан. 4800 метр масофани см. га айлантирсак,  $480000$  см. бўлади. Энди  $480000$  см. масофани 12000 кадам сонига бўламиз:  $480000 : 12000 = 40$ . **Жавоб:** С - 40 см Юқоридаги саволлар 5- синф ўқувчилари учун эди. Шу ва шунга ўхшаш мисоллар орқали уларда мантиқий фикрлашни ўргатиб, фанга бўлган қизиқишларини орттирамиз.Таълим сифат-самарадорлигини оширишда, ўқувчиларда фанлар кесимида мантиқий фикрлашнинг шаклланишида ўқитувчининг ўрни жуда катта. Бунинг учун ўқитувчи, биринчи навбатда, ижодкор бўлиши, фанни чуқур билиши, ахборот коммуникацион технологиялардан фойдалана олиши, ўз устида ишлаши, таълим янгиликларини фаолиятида қўлламоғи керак.

#### Адабиётлар:

1. Абдуллаев И.Х., Сафаров Н.И., Алимқўлов Н.Р. География фанини ўқитишда замонавий ёндашувлар ва инноватциялар. – Т.: 2017.: 108 б.
2. А.Қ.Самяев, Қ.С.Ярашев, Б.Б.Эшқувватов География фанидан амалий машғулотлар ўтказиш методикаси. –Самарқанд, 2018 йил. 76 б.



## GEOGRAFIYA DARSLARIDA TESTLARDAN FOYDALANISH

*Sherjonova Sohiba Qurbonazarovna*  
*Xorazm viloyati Shovot tumani*  
*23-maktab geografiya fani o'qituvchisi*  
*Tel:97-221-44-27//sherjonovasohiba27@mail.com*

**Annotatsiya:** Bu maqolada dars jarayonida turli xil testlardan qanday foydalanish haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** oflayn test, EazyQuizzy va iSpring Suite dasturlari, AKT. Yurtimizda XX asrning 90-yillaridan boshlab oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarini test sinovlari asosida topshirish keng yo'lga qo'yildi, Test so'zi inglizcha so'z bo'lib, topshirish, sinas h, nazorat qilish degan ma'nolarni anglatadi. Keyinchalik test sinovlari umumta'lim maktablarida ham keng joriy qilindi. Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlari bilimlarni tekshirishning asosiy usulidir.

Umumta'lim maktablarida o'qituvchining dars jarayonini to'g'ri tashkil qilishi juda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchiga qo'yiladigan talablardan biri dastur talablariga mos bo'lgan holda maqsadni aniq belgilab o'tilgan mavzuni tushuntirish, mustahkamlashda vaqtdan unumli foydalanishga erishishdir. Buning uchun dars jarayonini tashkil qilishda turli xil innovatsion texnologiyalardan, AKT va turli xil testlardan samarali foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Zamonaviy ta'limning eng muhim vazifasi o'quvchiga faqatgina muayyan bilimni o'rgatish emas, balki ularning fikrlash qobiliyatini o'stirish, egallagan bilimlarini amalda samarali qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishdan iboratdir. Bunda dars jarayonida turli xil testlarni qo'llash yaxshi natija beradi.

Oflayn test- bu EazyQuizzy va iSpring Suite dasturlarida tuzilgan testlardir. Bu dasturlarda oddiy testlarni oflayn testlarga aylantirish qulay bo'lganligi uchun o'qituvchi ko'p variantli testlarni yaratishi mumkin. Masalan: EazyQuizzy dasturining "Savollar va javoblar" bo'limidagi "Savol turi" qismida testning olti xil turdagi ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

qarama-qarshi tanlovli, bir tanlovli, ko'p tanlovli, o'g'ri ketma-ketlikni o'rnatish, muvofiqlikni o'rnatish, erkin javob.

"Bir tanlovli" ko'rinishda savolga javob variantlari ichidan faqat bittasi to'g'ri hisoblanadi. "Qarama-qarshi tanlovli" ko'rinishda "Statement" qismiga "ha" yoki "yo'q" javob variantlarini qabul qiladigan teorema yoki ta'rifga o'xshash matn kiritiladi. Keyingi ko'rinish esa "Ko'p tanlovli" bo'lib, savolga berilgan javob variantlari bir nechta to'g'ri javob bo'lishi mumkin. Geografiya sohasida hozirda testlarning juda ko'p turlari mavjud:

1. Ko'p javobli testlar.
2. Uyg'unlashgan savolli testlar. Namangan viloyatida joylashgan shaharlar yoniga ular uchun mos bo'lgan sanoat tarmog'ini yozing.
3. Rasm va chizmalı testlar. Masalan, quyidagi rasmlardan Orol dengizini toping.
4. Tushirib qoldirilgan so'zlarni to'ldirishga mo'ljallangan testlar. Masalan, O'zbekiston respublikasi shimolda ....., janubda ....., sharqda ....., g'arbda ....., bilan chegaradosh.
5. Qisqa muddatli testlar. Bunda o'qituvchi test savollari va javoblarini o'qib turadi, o'quvchilar esa to'g'ri javob raqami yozilgan kartochkalarni ko'taradilar.
6. Murakkab testlar. Ular o'quvchilarni fikrlashga va olgan bilimlarini amalda qo'llay olishga o'rgatadi.

Bu testlardan asosan o'tilgan mavzuni takrorlashda, yangi mavzuni mustahkamlashda, bob, choraklik va yil yakunida o'quvchilarni olgan bilimlarini sinashda foydalanish yaxshi samara beradi.

Xulosa sifatida shuni aytmoqchimanki, ta'lim-tarbiya tizimiga axborot-kommunikatsiya vositalarini keng joriy etib, o'quvchilarning bilimlari turli xil testlar orqali mustahkamlab borilsa, yosh avlod bilimli va zamonaviy texnika yutuqlaridan keng foydalana oladigan yetuk kadrlar bo'lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova K. Ilg'or pedagogik texnologiyalar, Toshkent-2004-yil
2. Haydarov B. va b.q. Ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Toshkent- 2002-yil.
3. J.G'. Yo'ldoshev. "Pedagogik texnologiya asoslari", Toshkent-2004-yil.



## MEDIADARS-BILIMLARNI OSHIRISH VOSITASI

*Yusupova Shahnoza Shonazarovna*  
*Xorazm viloyati Shovot tumani*  
*23-maktab geografiya fani o'qituvchisi*  
*Tel:99-123-75-14/yusupovashahnoza14@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mediadars bilimlarni yanada boyitish vositasi ekanligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** mediadars,teleimkoniyatlar,interfaol usullar,multimedia vositalari

Bugungi kunda har bir vatanparvar yurtdoshimiz davlatimizni rivojlangan davlatlar qatorida ko'rishni istaydi.Shu bois davlatimiz tomonidan yoshlarga, ularning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda.Ayniqsa,ta'lim tizimiga bo'lgan e'tibor juda katta.

XXI asr-axborot texnologiyalari asri hisoblanadi. Axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mamlakatimizning ta'lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy qilish,axborot resurslaridan o'quv jarayonida samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.Yangilanayotgan ta'lim tizimida yakuniy natija bevosita ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradigan o'qituvchi mehnatining qanday tashkil etilishiga borib taqaladi.Bu vazifani hal qilish uchun yoshlarni hayotga tayyorlashning yangi texnologiyasi,metod,usul, vositalardan foydalanish lozim bo'ladi.Ta'lim tizimiga qo'yilayotgan ulkan vazifalar esa ta'lim berishga munosabatni,yondashuvni o'zgartirishni talab etadi. Natijada maktablarda "mediadars" degan tushuncha paydo bo'ldi.

Multimedia-ta'limni rejalashtirish va boshqarishda multimedia vositalari,ya'ni audio,video,teleimkoniyatlardan foydalanish demakdir. Mediadarsda grafik,surat,harakatli tasvirlar hosil qilish va namoyish qilishda multimedia vositalari katta rol o'ynaydi.Zamonaviy ta'limning eng muhim vositasi o'quvchiga faqatgina muayyan bilimni o'rgatish emas,ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish,geografik bilimlarni xarita orqali yanada kengaytirish, xaritadan egallagan bilimlarni amalda samarali qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.Bunda mediadarsning ahamiyati katta.Faqatgina darslik orqali o'tiladigan darslarda o'quvchilarning shu hudud haqidagi bilimlari jamlanmaydi.O'quvchi shu hududga oid turli grafik,fotosuratlar,harakatli va videotasvirlar,ko'rsatmali xaritalarni ko'rish va eshitish orqali o'rganadi.Bu esa darsning qiziqarli,rang-barang,faol harakatlar asosida o'tilishini ta'minlaydi. Darslar ko'rsatmali va interfaol usulda bo'lgani bois o'quvchilarning e'tiborini jalb etadi va faolligini oshiradi.

Mediadarslarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning savodxonligini oshiradi,mustaqil fikr yuritish ko'nikmasini rivojlantiradi. Geografiya fani darslarida daryo,ko'l,tog',muzliklar yoki biror tabiat zonasi haqida,mamlakatlar va viloyatlar haqida faqat kitobdan o'qib,ko'proq tushunchaga ega bo'lish qiyin.Mavzularni o'quvchi amalda ko'rsa,daryo oqimini,yirik daryolarni, ko'l va tog'larni,tabiat zonasidagi o'simlik va hayvonlarni,shaharlar va ishlab chiqarish korxonalarini videodarslar orqali ko'rib o'rgansa,mavzu yanada qiziqarli va tushunarli bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda,mediadarslar o'quvchilarda geografik obyektlarning qiyofalari va fazoviy joylahuvini bilib olish ko'nikmalarini tarbiyalashga yordam beradi.Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etganda ta'lim oluvchilar juda yaxshi bilim,ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi.

Demak, ta'lim tizimiga axborot kommunikatsiya vositalarini keng joriy etib, o'quvchilarga mediadarslar orqali saboq berilsa,yosh avlod zamonaviy texnika imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan yetuk kadrlar bo'lib ulg'ayadi. Ta'lim tizimiga joriy qilinayotgan bu islohotlardan asosiy maqsad davlatimizni yanada rivojlantirish,unga munosib vorislar yetishtiri shdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshmuhammedov R.O'quv jarayonida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati,Toshkent-2008-yil.
2. Saydametov F.Geografiy o'qitish metodikasi,Ma'ruzalar matni,Toshkent-2001.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(25-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000